


Yondosh mavzu:
origami.


Formula, sonli nur,
tezlik, vaqt, masofa.



1. Ushbu iboralarni tushuntiring.

- a) Sol daryo bo'ylab 2 km/h tezlikda pastga suzib ketdi.
- b) Akmal maktabga borishda 60 m/min tezlikda yurdi.
- d) Ari 6 m/s tezlikda uchadi.

2. Akmal qog'ozdan yasagan qayiqchasini ariqda oqizdi. Qayiqcha pastga 20 m/min tezlikda suzdi. Quyidagi savollarga sonli nur yordamida javob bering.



- a) Qayiqcha 1 minutda qanday masofani bosib o'tadi? 2 minutda-chi? 3 minutda-chi?
- b) Qayiqcha t minutda qanday masofani bosib o'tadi?
- d) Akmal oqizgan joyidan 120 m uzoqlikda qayiqchasini ushlab oldi. Bu qayiqchasini oqizganidan necha minut keyin sodir bo'ldi?

3. Haqiqiy motorli qayiq ko'lda 45 km/h tezlikda suzishi mumkin. U 1 soatda qanday masofani bosib o'tadi? 2 soatda-chi? Jadvalni daftaringizga chizing va uni to'ldiring.

Vaqt, h	1	2	3	5	6	7	t
Masofa, km							

Harakatga doir masalalarda biz uchta kattalikka duch kelamiz.

Jism bosib o'tgan yo'l, odatda, s harfi bilan belgilanadi.

Vaqt t harfi bilan belgilanadi.

Tezlik v harfi bilan belgilanadi.



Tezlik – bu vaqt birligi ichida bosib o'tilgan yo'l. Jism t vaqt ichida bosib o'tgan umumiy yo'lni topish uchun tezlikni vaqtga ko'paytirish kerak.

Yo'l formulasi:

$$s = v \cdot t$$

$$v = s : t$$

$$t = s : v$$

4. Yo'l formulasidan foydalanib, noma'lum kattaliklarni toping.

v	t	s
60 km/h	2 h	?
?	5 s	200 m
40 m/min	?	320 m

v	t	s
20 m/s	30 s	?
?	70 min	280 m
30 m/min	?	1500 m

5. Yo'l formulasidan foydalanib, ifodalarni yozing. Noma'lum kattaliklarni toping.

a) Chavandoz 12 km/h tezlikda harakatlanmoqda. U 3 soatda qanday masofani bosib o'tadi?


b) Qog'ozdan yasalgan samolyot 4 sekundda 1 m 20 cm masofani uchib o'tadi. Samolyot qanday tezlikda uchadi?

d) Kaptar 120 km masofaga uchdi. Agar kaptarning tezligi 60 km/h bo'lsa, u qancha vaqt uchgan?

6. Akmal bilan Jasur sinf uchun 40 ta qog'oz samolyot yasashni va'da qilishdi. Ularning har biri soatiga 10 tadan qog'oz samolyot yasaydi. Agar ular ishni soat 14:00 da boshlasalar, uni soat nechada tugatadilar?



7. Uchinchi sinf o'quvchilari "Mohir qo'llar" to'garagida origami shakllarini yaratishdi. Agar ular uch xil shakl yaratishsa va har bir bola ikkitadan shakl yaratsa, bu to'garakda jami necha nafar o'quvchi qatnashgan?



22 ta

2 marta kam

7 ta ko'p



8. Qulay usulda hisoblang.

$$894 - (594 + 118)$$

$$713 - 82 - 118$$

$$(553 + 279) - 453$$

$$(321 + 447) - 247$$

$$232 - (96 + 132)$$

$$(833 + 79) - 633$$



9. Kvadrat shaklidagi qog'oz oling. Uni buklab, quyidagilarni yasang:

- ikki tomoni teng bo'lgan uchburchak;
- simmetrik sakkizburchak.



10. Hisoblang:

$$3\text{ m } 43\text{ cm} : 7 + 12\text{ dm } 2\text{ cm} : 2 \cdot 5 - 1\text{ m } 3\text{ dm } 5\text{ cm}$$

$$4\text{ km } 235\text{ m} : 5 - (5\text{ km } 72\text{ m} - 4\text{ km } 230\text{ m})$$

$$4\text{ h } 34\text{ min} + 3 \cdot (455\text{ min} - 2\text{ h } 30\text{ min})$$



11. Akmal bilan Jasur qog'ozdan samolyot yasab uchirishdi. Akmalning samolyoti 3 sekundda 15 metrga, Jasurning samolyoti esa 4 sekundda 12 metrga uchdi. Qaysi samolyotning tezligi katta va qancha katta?